



Journal of Natural Sciences

№2
(2021)

<http://www.natsciences.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Кодиров Т- к.ф.д, профессор3. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор4. Султонов М-к.ф.д, доц5. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.6. Хакимов К –г.ф.н., доц.7. Азимова Д- б.ф.н.8. Мавлонов Х- б.ф.д., доц9. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.10. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)11. Мухаммедов О- г.ф.н., доц12. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)13. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц14. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчиб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Sciences-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**JIZZAX VILOYATI ICHKI SUVLARIGA ANTROPOGEN
OMILLARNING TA’SIRI**

Xolmirzayev Jumanazar Ergashevich o’qituvchi., Qosimov Nurmuhammad Dursinovich o’qituvchi., (Jizzax davlat pedagogika instituti). Bo’ronov Javlon. Urgut tuman №18- maktab o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jizzax viloyatining geografik omillar ta’sirida hosil bo’lgan antropogen gidrografik tarmoqlari va chetdan kirib keluvchi suv resurslarining viloyatdagi o’rni tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: suv resurslari, geografik omillar, gidrografik inshootlar, kanallar, suv omborlar, vegetatsiya va novegetatsiya davrlar, xo’jalik faoliyatining ta’siri.

Аннотация: В данной статье анализируется роль водных ресурсов в Джизакской области, наряду с антропогенными гидрографическими сетями, созданными природными условиями и географическими факторами.

Ключевые слова: водные ресурсы, географические факторы, гидрографические сооружения, каналы, водохранилища, растительность и новинки, влияние хозяйственной деятельности.

Annotation: This article analyzes the role of water resources in the Jizzakh region, along with anthropogenic hydrographic networks created by natural conditions and geographic factors.

Key words: water resources, geographical factors, hydrographic facilities, canals, reservoirs, vegetation and novelties, the impact of economic activities.

Jizzax viloyati ichki suvlarning xosil bo’lishida tabiiy geografik omillar Jizzax viloyatining joylashgan geografik o’rni, quyosh burchak ostida tushayotgan radiyatsiya balansi, mavsumiy va fasliy taffovutlari birinchi navbatda ta’sir etsa, ikkinchi navbatda kirib kelayotgan iliq va sovuq havo massalarining o’rni, shu bilan birgalikda joyning orografik tuzilishi kabi tabiiy va sun’iy omillar muxim ahamiyat kasb etadi.

Ichki suvlarning o’zi hech qachon mustaqil shaklana olmaydigan resurs ya’ni bu ham boshqa omillar ta’sirida harakatga keladi va rivojlanadi. Xususan, relef, iqlim, xavo massalari, bosimlar farqi, kabi omillar ta’sirida suvlar ham turlicha joylashadi. Jumladan, nafaqat Jizzax, Mirzacho’l Tabiiy geografik rayonida balki O’zbekiston va O’rta Osiyo xududida barcha tabiat komplekslari va tabiat komponentlari relef orografik nuqtai nazardan g’arbdan sharqqa tomon cho’l, adir,

tog' yaylov mintaqasi bo'ylab shaklanganligini ko'rishimiz mumkin. Binobarin, aynan Jizzax viloyati ham ichki suvlarining o'simliklar, xayvonlari kabi komponentlari ham tekislikdan tog'likka tomon o'zgarib, tadrijiy oddiylikdan murakkablikka tomon joylashganligini ko'rish mumkin. Jizzax viloyati ichki suvlarining eng oddiy xususiyatari ko'zga tashlanadi juda katta yastanib yotgan shimol tekislik, janub tog'lik eng katta tashlama Aydar – Arnasoy ko'llar tizimi, Zomin milliy parki va qo'riqxonasi-yu, Nurota tog' yong'oqzorlari shirindan shakar poliz ekinlari-yu, pista bodom qirmiz olmalarini aytib o'tish mumkin. Mazkur maqtovlar albatta o'z o'zidan suni'y omil ta'sirida shakllanib qolgan emas bularning xammasi million yillar davomida tabiiy geologik jarayonlar ta'sirida shakllanib tabiiy sharoitning maxsulidir deyish mumkn.

Jizzax viloyati suv resurslariga eng avvalo Aydar-arnasoy ko'llar tizimi, Sangzor daryosi, Zarafshondan keluvchi Tuyatortor kanali, Zomin daryosi va Zomin suv ombori hamda Jizzax suv omborini aytib o'tish mumkin. Undan tashqari Forish tumanida bir qancha soy va buloqlar, Baxmal, Zomin tog'laridagi baxorda to'lib yozda qurib qoluvchi soylar shular jumlasidandir. Jizzax viloyati maydoni jihatidan kattaligi bo'yicha 4 o'rinda turuvchi viloyat ekanligi sug'orma dexqonchilik bo'yicha eng oldingi o'rinlarda turganligini inobatga olib suv resurslarini o'zini o'zi arang qoniqtirib turganligini aytib o'tish mumkin. Bugungi kunda shunday texnika va texnologiyalarni joriy etish vaqti kelganini, sho'r suvlarni chuchitish, tashlama sizot suvlarini to'g'ridan to'g'ri yana foydalanish holiga keltirish, zarurat tug'ilganda ekinlarning kerak bo'lsa, chorvachilikning eng intensiv, hamxarjli kamsuvni tejoychi nav va turlarini yetishtirish vaqti kelganligini tavsiflab o'tish kerak. Jizzax viloyatida juda katta cho'lli gilli xududlar mavjudligini xisobga olib, yerning tekis to'plovchi (janub), sarflovchi (shimol), yangidan yangi suv resurslarini, gidronim bazalarini ta'minlash davr talabiga aylanib bormoqda. Chunonchi, biz Jizzax viloyatining har bir gorizont burchagida suv haqidagi geofizik va geoximik analizlarni ma'lumotlarni olish orqali yer osti, yer usti, atmosferadagi 3 agragetdagi suvlar bazasini o'rganib taxlil qilish imkoniyatiga egamiz. Ammo bizda shunday bir panja ostidan ko'z yumib bo'lmaydigan hatoliklar mavjudki bu iqtisodiyotning muxim qatlamlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Xususan bular:

- Axolida geoekologik ta'lim tarbiyaning yo'qligi.
- Davlat tomonidan gidrologik inshootlariga jiddiy etibor bermasligi.
- Daryo, kanal, ariq, va latoklardan kelayotgan chuchuk suvlarning gidrotexnik me'yori aniq reja asosida taqsimlanmasligi.
- Ortiqcha suvlar vaqti kelganda qarovsiz qolib yerga va zovurlarga oqishi.

- Yer egalari jumladan fermerlarning ham bilimsiz o'quvsizligi yer va suvdan pala partish xo'jasizlarcha foydalanishi nafaqat tabiiy balki ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'ratadi deb o'ylayman.

Binobarin Jizzax viloyati ichki suvlari doimiy o'rganishda o'zgarishda va yangilanishda bo'ladi. Chunki maydon katta ekin ekish uchun sharoitlar yetarli, faqat yerdan muayyan bilim, tajriba reja asosida foydalanilsa ko'zlangan natijani beradi. Jizzax viloyatini salkam 80% Sirdaryo daryosi suv bilan ta'minlaydi. Janubiy Mirzacho'l kanali bir necha tarmoqqa bo'linib 13.5 mingdan ortiq yerlarni sug'oradi. Jumladan Do'stlik, Gagarin, Paxtakor, Zafarobod tumanlari to'liq Sirdaryo daryosidan suv oladi. Jizzax viloyatida ayniqsa shimoliy tekislik qismida yer osti grunt suvlari suzadigan yerlarda yer beetiga ancha yaqin bo'lib, sug'oriladigan yrlarda 1.0-1.1 km³ yog'inlardan 0.3-0.4km³ suv kiradi. Bug'lanishiga esa, aksincha 2.5-2.9km³ suv sarflanadi. Buning mamlakatda ko'llarning kirishi harakatga nisbatan kam bo'lib, maydoni qisqarmoqda. Ko'llar suvi sho'r vegetatsiya davrida har bir metrda 1.5-5 gr kuzda 11-16 gramgacha tuz bo'ladi. Ko'llarni baliqchilikdagi ahamiyati katta Jizzax grunt suvlariga boy bo'lgani uchun ularning chuqurligi hamma yerda bir xil emas. Jizzaxda grunt suv yer betiga yaqin bo'lib, 2-10 metrdan shimoliy sharqda ancha chuqurdan 30-40 metrdan va hatto 200-300metrdan chiqadi, yer betiga yaqin bo'lgan grunt suvlari sho'r bo'lib ichishga yaramaydi. Olimlarning fikriga ko'ra Jizzaxda 200-300m chuqurlikda chuchuk suvli qatlam joylashgan bo'lib, sug'orib dehqonchilik qilinadigan vohalarda tabiiy o'simliklar kishilar xo'jliak faoliyati natijada ancha siyraklashib qolgan. Bahorda bu rayonlar ko'm ko'k o'tlar bilan qoplanadi. Ko'proq rang qorabosh, shaytonkavush, lola, lolaqizg'aldoq, o'sib yozda qurib qoladi. So'ngra yontoq, shuvoq, butalardan jiyda, darahlardan chinor, sada va boshqa sho'rhok yerlarda kayrovuk, tatir, tersken, Burgan, sho'ra, sarsazon, shohilik, yulg'un va boshqalar o'sadi. Tuzkon va Arnasoy ko'llarining sharqiy qismida joylshgan qamishzorlardan iborat bo'lgan o'tloq va botqoq va botqoq va sho'rxok tuproqlar proallyuvial allyuvial tuproqlarni shakllanganligini ko'rish mumkin. Bugungi kunda Jizzax viloyati sug'orish tizimi bir necha yillardan buyon ta'mirlanmasdan xo'jasizlarcha rejasiz foydalanish natijasida juda ham ko'plab kompleks muammolar vujudga kelmoqda. Jumladan, qishloq xo'jaligida yer usti suv oqimlarini yirik magistral kanallar yordamida qayta taqsimlash daryo va kanallar bo'ylarida yirik suv omborlari kaskadini qurish va ishlatish yirik yer massivlarini sug'orishni va boshqa faoliyatining ta'siri va atrof muhitga regional tarzda ulkan kuchli texnogen yukni barpo qiladi. Yer usti suvlari oqimining texnogen rejimining shaklanishiga olib keladi, yer osti va yer usti suvlari o'rtasidagi bog'lanishni buzilishiga olib keladi. Texnogen gidrografik tarmoqlarni yaratilishiga yer osti yer

usti suvlarining maydoni boʻylab ifloslanishiga olib keladi. Asosan kompleks texnogen jarayonlar taʼsirida suv xoʻjaligi faoliyati olib boriladigan ulkan maydonlarda, suv xoʻjaligi miqyosida texnogenez shakllanadi.

Ayni paytda Jizzax shimoliy xududlarida Zafarobod, Doʻstlik, Arnasoy tumanlari ekiladigan xosil maydonlarining katta qismini tashkil etsada ammo juda katta texnogen jarayonlarni amalga oshirishni talab etadi. Xususan, tabiiy resurslarni qoʻllashga yoʻnaltirilgan, turli xil injinerlik faoliyati taʼsirida shakllanadigan holatlar ekspulatsiya qilishda namoyon boʻladigan gidrogeologik – meliorativ, injinerlik-geologik, gidrokimyoviy texnogen jarayonlarni amalga oshirish bugungi kunning kechiktirib boʻlmaydigan davr talabidir deb xisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алимкулов Н.Р. Жиззах вилоятида рекреацияни ривожлантиришнинг географик асослари (Табиий географиянинг регионал муаммолари). Самарканд., 2002., 98-101 б.

2. Жиззах вилояти статистика бошкармаси маълумотлари. 2015й.

3. Жиззах гидрогеологик-мелиоратив экспедицияси маълумоти. Жиззах вилоятида сугориладиган ерларни мелиоратив назорат килиш ва зовур-дренаж тармокдарини эксплуатация килиш буйича 2017 йил хисоботи.

4. Расулов А.Р., Хикматов Ф.Х., Умумий гидрология. -Тошкент: Университет, 1995.-175 б.